

KOGNITIV TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI

Termiz davlat universiteti magistranti

Sheraliyeva Iroda Aliqul qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola shiddat bilan rivojlanib borayotgan kognitiv tilshunoslik oldidagi bir qancha dolzarb muammolarini yoritishga bag'ishlanadi. Tadqiqotda ko'plab olimlar tomonidan bahslarga sabab bo'layotgan til va nutq masalasi, konseptlar, sun'iy intellekt haqida bir qancha mulohazalar olib borilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv lingvistika, konsept, til va nutq, til va madaniyat, sun'iy intellekt.

Abstract. This article is dedicated to highlighting several pressing issues facing rapidly developing cognitive linguistics. The study examines the issues of language and speech, concepts, and artificial intelligence, which are controversial for many scholars.

Keywords: cognitive linguistics, concept, language and speech, language and culture, artificial intelligence.

Bugungi kunda tilshunoslikda kognitiv yondashuvning yuzaga kelishi natijasida kognitiv lingvistika mustaqil yo'nalish sifatida shakllandi. Kognitiv tilshunoslik insonning bilish qobiliyati haqidagi fan-kognitologiyaning markaziy sohalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Kognitiv atamasi ingliz tilidagi "cognitive- bilishga oid" so'zidan olingan bo'lib, bilish, anglash, tafakkur tushunchalari bilan bog'liqdir. Kognitiv tilshunoslikning asosiy maqsadi sifatida til tizimining bilish jarayonidagi ishtiroki va ulushini aniqlash sifatida belgilanadi. Kognitiv yondashuvga ko'ra, til insonning dunyoni idrok etish jarayonining natijasi bo'lib, unda milliy madaniyat, tajriba va mentalitet aks etadi.

Bugungi kunda zamonaviy kognitiv tilshunoslikning hali hal etilmagan bir qancha dolzarb masalalari mavjuddir. Bulardan biri til va tafakkur munosabatidir. Til va tafakkur munosabati muammosining uzoq yillardan buyon davom etib kelayotgan muhokamasi turli metodologik xulosa va tavsiyalarni yuzaga keltirdi. Bir qancha olimlar tashqi dunyoning ongndagi in'ikosi paydo bo'lishida til asosiy rol o'ynashiga alohida urg'u berib o'tganlar.

Ular Sepir, Budagov, Panfilov, Hoyjer va boshqalar bo'lib, ta'kidlashlaricha, lisoniy struktura insonning voqelikni idrok etish qobiliyati va tajribasining shakllanishini ta'minlab, ijtimoiy ongga ta'sir o'tkazadi hamda shu yo'sinda insonning dunyoqarashi voqelikni anglash qobiliyatini shakllantiradi. Voqelikning miyada aks etishi faqatgina nutqiy tafakkur harakati natijasida yuzaga kelmasligini isbotlash maqsadida B.A Serebrennikov tafakkurning lisoniy va nolisoniy turlarini taklif etgan. Bu masalada har bitta olim yoki tilshunos faqatgina o'zlarining g'oyalarini ilgari surib kelganlar. Bu masala, ya'ni til va tafakkur munosabati masalalari hozirgacha muammoli. Ularning o'zaro bog'liqligi madaniy va lingvistik tafovutlarni tushunishga yordam beradi.

Lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik sohalari uchun ham umumiy bo'lgan asosiy kategoriyalardan biri bu-konseptlar. Konseptlar, ularning tushunchadan farqlari, uning yuzaga kelishi va qay tariqa konsept darajasiga ko'tarilishi kognitiv tilshunoslikdagi asosiy muammolardir. Uning asosiy xususiyatlari ko'p qatlamliligi, milliy-madaniy xarakterga ega ekanligi, dinamikligi, lison orqali voqelanishi va mental tuzilmaliligidir. Konseptlar ham bevosita til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiradi. Kognitiv tilshunoslikning asoschilaridan biri hisoblangan Lakoff konseptlar haqida shunday fikrni keltiradi: "Konseptlar inson tafakkurining asosini tashkil qiladi va ular ko'pincha metaforalar orqali shakllanadi". Muammo shundaki, konseptning nima ekanligi, u qanday shakllanadi va uni nima shakllantiradi, uning chegarasi bormi, boshqa xalqlarda ham konseptlar bormi degan savollarga aniq bir javob yo'qligidir.

Bundan tashqari kognitiv tilshunoslik oldida turgan dolzarb masalalar sun'iy intellekt texnologiyalari rivoji bilan yanada keskinlashmoqda va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, konseptual tizimlarning shakllanishi, metaforik tafakkur hamda kontekstual ma'no kabi muammolar sun'iy intellektda tilni qay darajada "tushunish" masalasini yuzaga keltiradi. Inson tafakkuri tajriba va madaniyatga asoslangan bo'lsa, sun'iy intellekt asosan statistik modellar orqali ishlaydi. Shu bois, kognitiv tilshunoslik nazariyalari sun'iy intellektni yanada mukammallashtirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, Anna Wierzbicka ta'kidlagan milliy-madaniy konseptlar masalasi ham sun'iy intellekt uchun jiddiy to'siq bo'lib, global modellar lokal semantik nozikliklarni to'liq aks

ettira olmayotganini ko'rsatadi. Natijada, kognitiv tilshunoslikdagi dolzarb muammolar sun'iy intellekt texnologiyalarini takomillashtirish uchun muhim nazariy asos bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Kognitiv tilshunoslik bugungi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ilmiy yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. Ushbu sohada konsept, metafora, freym va kontekst kabi asosiy tushunchalarning mohiyatini aniqlash bilan bog'liq muammolar hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda. Ayniqsa, bu masalalar sun'iy intellekt tizimlari rivoji fonida yanada keskinlashib, til va tafakkur o'rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqurroq o'rganishni taqozo etmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. *The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities*. New York: Basic Books, 2002.
2. Vyvyan Evans, Melanie Green.
Cognitive Linguistics: An Introduction. — Edinburgh: Edinburgh University Press, 2006.
3. Dirk Geeraerts, Hubert Cuyckens (eds.).
The Oxford Handbook of Cognitive Linguistics. — Oxford: Oxford University Press, 2007.
4. Zoltán Kövecses. *Metaphor: A Practical Introduction*. — Oxford: Oxford University Press, 2010.
5. Benjamin K. Bergen. *Louder Than Words: The New Science of How the Mind Makes Meaning*. — New York: Basic Books, 2012.
6. Adele E. Goldberg. *Constructions at Work: The Nature of Generalization in Language*. — Oxford: Oxford University Press, 2006.
7. Ziyonet – <https://ziyonet.uz>.
8. Google Scholar – <https://scholar.google.com>.
9. ResearchGate – <https://www.researchgate.net>.
10. Academia.edu – <https://www.academia.edu>.